

## YANGI AVLOD RASSOMLARI IJODIDA MAISHIY JANRNING O'ZIGA HOS TALQINI

**Xomidxonova Adolat**

O'zbekiston Badiiy akademiyasi Kamoliddin Behzod nomiagi Milliy rassomlik va dizayn institute Tasviriy san'at fakulteti Dastgohli rangtasvir yo'nalishi magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy rangtasvir nima, uni qanday tushunish kerak, qachon yuzaga kelgani nimalar sabab bolgani to'g'risida, qaysi rassomlar ijodida zamonaviy rangtasvirni ko'rishimiz mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berildi. O'zbekiston zamonaviy rangtasviri qanday ko'rinishda ekani, uning vakillari, o'zbek rassomlari ijodida zamonaviy rangtasvirning o'rni, maishiy janrning zamonaviy rangtasvirda tutgan o'rni, qay tarzda ifodalanayotgani to'g'risida yozildi. Hozirgi yosh rassomlar ijodi, ular qilayotgan yangiliklar ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida fikrlar yoritildi.

**Kalit so'zlar:** San'at, janr, rassom, maishiy janr, rangtasvir, graffitti, komputer grafikasi va boshqalar

Yangi avlod rassomlari ijodida maishiy janrning o'ziga xos ifodasi san'atning turli shakl va uslublarida namoyon bo'ladi. Zamonaviy san'atkorlar ko'pincha kundalik janrdan odamlarning kundalik hayoti va voqeligini aks ettirish, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy muammolarni sharhlash uchun foydalanadilar.

Banksy kabi ba'zi zamonaviy rassomlar qashshoqlik, urush va tengsizlik kabi ijtimoiy va siyosiy masalalar bo'yicha o'z fikrlarini ifodalash uchun graffitti va ko'cha san'atidan foydalanadilar. Devid Xokni kabi boshqa rassomlar o'z rasmlarida shahar va tabiatdagi hayotni tasvirlash uchun maishiy janrdan foydalanadilar. Shuningdek, ba'zi zamonaviy rassomlar zamonaviy madaniyat va jamiyatni sharhlovchi asarlar yaratish uchun kompyuter grafikasi va virtual haqiqat kabi yangi texnologiyalardan foydalanmoqda. Umuman olganda, zamonaviy rassomlar ijodidagi kundalik janr zamonaviy dunyoning kundalik hayoti va voqeligini ifodalash va aks ettirish, shuningdek, muhim ijtimoiy va siyosiy masalalarga e'tiborni jalb qilish usulidir.

Zamonaviy rassomlar ijodida maishiy janrning o'ziga xos ifodasiga misollardan biri amerikalik musiqachi va rassom Tom Ueytsning (Tom Waits) asaridir. Uning asarlarida maishiy janr mavhumlik elementlari bilan uyg'unlashib, o'ziga xos uslub va muhit yaratadi. Ular Amerika madaniyatiga, uning tarixi va afsonalariga qiziqish, shuningdek, kundalik voqealar va oddiy odamlarni kuzatishga asoslangan. Tom

Ueytsning ishi - tomoshabinlar va tanqidchilarning qiziqishi va hayratini uyg'otadigan kundalik mavzularga oldindan aytib bo'lmaydigan va eksperimental yondashuv.

Bizning O'zbekistondan esa badiiy akademiya qoshidagi «Ijodiy ustaxona yosh rassomlarini biz yangi avlod rassomlari qatorida misol qilib keltira olamiz. Ularning har biri o'z uslubi, yo'nalishi, izlanishi bilan o'zlarini ijodlarini bizga namoyish etmodlar.

Hozirda ulardan Saidbek Sabirbayev, Erkinova Sarvinoz , Kulmanov Erikarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ularning har biri o'zining yo'nalishi, ishlash uslubi bilan ajralib turadi. Saidbek akaning asarlari fazoviy yengillikka ega va o'z an'analariga sodiq qolgan holda ishlaydilar. Ko'proq maishiy , portret ,natyurmort janrida ijod diladilar. Ranglarga issiq koloritdagi ranglardan ko'p foydalanidlar. Keskin chiziqlar, qirrali burchaklarni ularni asarlarida kuzatish qiyin.

Erkinova Sarvinozni asarlari ko'proq abstrakt asarlarga ham o'xshab ketadi. Ko'proq akril bo'yog'idan foydalanib syujetsiz , ranglar chiziqlar orqali o'z fikrlarini ko'rsatganlar. Ularda yana portret janridagi asarlarni ham ko'plab ko'rishimiz mumkin. Akril bo'yog'i orqali turli ranglarni aralashtirib o'ziga hos faktura hosil qilishga o'z fikrlarini ana shu ranglar ,turli fakturalar ,tekisliklar orqali ko'rsatishga harakat qilmoqdalar. Manashu ranglar uyg'unligida turli portrtlarni ko'rishimiz mumkin. Ularni asarlarida qisaman Bahodir Jalolovning tasirlari seziladi. Baribir ustozlari bo'lganidan keyin ulardan ilhomlanadilar.

Kulmanov Erik esa o'zlarining o'ychan, ekspressiyaga to'la asarlari bilan chiqdilar. Lekin sokin ko'rinishdagi Akmal Nurga taqlid qilgan holda yaratgan asarlarini ham kuzatishimiz mumkun. Ular turli lekin bir-biriga yaqin uslubda yaratgan asarlari bilan ular haqiqiy o'zlarini qidirishga harakat qilmoqdalar. Ular realistik maktabni chuqur va yaxshi egallagan bo'lishlariga qaramasdan ular bu yo'ldan emas balki zamonaviy yo'nalishda asarlar yaratishga kirishdilar. Ular ham turli faktura, turli hil plastik holatlar ,ranglar uyg'unligidan foydalangan holda asarlar yaratmoqdalar.

Saidbek Sabirbayev yaxshi tanilib kelayotgan O'zbekistonda ijod qilib kelayotgan qoraqalpoq rassomlaridan biri. O'ziga hos yo'nalish egasi. Saidbek haqiqiy rassom karakterli, ba'zi asarlari syujetli, ba'zilar portretidan iborat. Va ular o'z koloritiga, mazmuniga, yengillik, fazoviylikka, yaxshi plastik yechimga ega asarlardir. Asarlarida o'z ona yurtlari go'zaligini ochib berishga harakat qiladilar.

Bu yangi avlod rassomlari o'z asarlarida maishiy hayotni oddiy qilib tasvirlamay, undagi obrazlarni o'z qarashlari bilan yangicha kompozitsion yechib bilan tomoshabinga taqdim etmoqdalar. Maishiy janrni ular talqinida shunday ko'rishimiz mumin. Yana nafaqat bu stajor rassomlar balki boshqa yosh rassomlarimiz ham o'z asarlari bilan ko'zimizni quvnatib kelmoqdalar. Ulardan Alisher Hamdamov, Mohira Mulyatjanova, Nuriddin Rasulov, Zilola Qahramonova, Dono G'aniyeva, Danil

Kudryavtsev, Sanjar Jabborov, Dilshod Vahobov, Bolatbek Ilyasevlarni misol keltirishim mumkin. Ularning ishtirokida tashkil qilingan “Affermatsiya” deb nomlangan ko‘rgazma mohiyati shundan iborat ediki: Affermatsiyani doimo qo‘llash, undan unumli foydalanish har qanday vaziyatni yaxshi tomonga o‘zgartirishning eng oson usuli hisoblanadi. Aynan ko‘rgazmaning nomi rassom kayfiyatini, bugun va hozir, aynan shu yerda ijod qilish uchun ctimul, rag‘batlantirish, o‘zlarining ijod prizmasi orqali hohish-istaklarini bayon etishni belgilaydi.

O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi A.Nuriddinov davlatimiz yosh avlodning ta’lim tarbiyasi va ijod qilishiga alohida g‘amhorlik qilayotganini ta’kidladi. Badiiy akademiya tarkibida bir nechta ajoyib ko‘rgazma zallari bo‘lib, ularda yosh rassomlar bemalol o‘z asarlarini namoyish etmoqdalar. Yosh rassomlar ijodiy guruhlarining paydo bo‘lishi mustaqillik davridagi yoshlar san’atiga xos hususiyatga aylandi. O‘zbekiston tasviriy san’at galereyasi qoshidagi “Doira I”, “5+1”, Andrey Lomanov boshchiligidagi rassom-dizaynerlar guruhlar shunday guruhlardir<sup>1</sup>

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. “Tasvir va talqin” K.Akilova.
2. Library.ziyonet.uz
3. Gigafox.ru
4. Uztex.com

---

<sup>1</sup> “Tasvir va talqin” K.Akilova